

## TARJIMASHUNOSLIKNING KECHIKTIRIB BO'LMAS VAZIFALARI XUSUSIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14600400>

Filol.f.d. **Xayrulla HAMIDOV**,  
TDSHU professori, Toshkent, O'zbekiston  
Tel: 90 960 06 23;

E-mail: [hamidovx@gmail.com](mailto:hamidovx@gmail.com)

PhD. **Nargiza ISMATULLAYEVA**,  
TDSHU dotsenti, Toshkent, O'zbekiston  
Tel: +998 99 867 10 88;  
Email: [ismatullayeva.nargiza@gmail.com](mailto:ismatullayeva.nargiza@gmail.com)

*Annotation.* Ushbu maqolada O'zbekistonda, xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tarjimashunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar, badiiy tarjima vositasida xorijiy adabiyot namunalarini mamlakatimizda va o'zbek adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib qilishning muhim va kechiktirib bo'lmas vazifalari xususida so'z boradi.

*Ключевые слова:* o'zbek adabiyoti, tarjima adabiyoti, badiiy tarjima, tarjima tanziqi, "Turkiy adabiyot durdonalar".

*Аннотация.* В данной статье речь идет о работе, проводимой в области переводоведения в Узбекистане, в частности в Ташкентском государственном университете востоковедения, и важных и актуальных задачах распространения образцов зарубежной литературы в нашей стране и пропаганды узбекской литературы на международном уровне посредством художественного перевода.

*Ключевые слова:* узбекская литература, переводная литература, художественный перевод, критика перевода, «Шедевры турецкой литературы».

*Annotation.* This article talks about the work carried out in the field of translation studies in Uzbekistan, in particular at the Tashkent State University of Oriental Studies, and the important and urgent tasks of distributing examples of foreign literature in our country and promoting Uzbek literature at the international level through literary translation.

*Key words:* Uzbek literature, translated literature, literary translation, translation criticism, "Masterpieces of Turkish literature".

Jahon adabiyoti durdonalarining madaniy hayotimizga kirib kelishi va tarjima asarlarining milliy adabiyotimizning beba ho mulkiga aylanishi natijasida xalqimiz o'zga xalqlarning madaniyatlari, urf-odat va an'analar, hayotni anglash falsafasi, yashash tarzi bilan yanada yaqinroq tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xalqlar orasidagi madaniyat ko'prigi hisoblangan va har doim milliy adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda taraqqiy etib kelgan badiiy tarjimaning san'at darajasiga yuksalishida tarjimonning iste'dodi va amalga oshirilayotgan tarjimalarning sifati va badiiy-estetik

saviyasi muhim o‘rin tutadi. Tarjimonning asl nusxani boshqa tilda qayta yaratishdagi mahorati ijodning bunday turida asosiy omil hisoblanadi. Tarjimon mahorati qirralarining tadqiq etilishi esa asar tarjimasining sifatini baholashga imkon beradi. Bundan tashqari, tarjimalarning badiiy saviyasi, qimmati unda asliyat mazmunining qay darajada aks ettirilganligi bilan o‘lchanadi.

Jahonning juda ko‘p xalqlari bilan madaniy muloqot o‘rnatalishi natijasida badiiy ijod sohasining maydoni kengayib borayotgan bir davrda tinimsiz izlanishlar, chuqur nazariy, tanqidiy tadqiqotlar, ilmiy umumlashmalarga ehtiyoj sezilmoqda. Muhibimi, badiiy ijodning bu “injiq” sohasida qalam tebratadigan tarjimashunos-tadqiqotchilar qancha ko‘paysa, soha ham shunchalik taraqqiy etadi, original bilan bellasha oladigan tarjima asarlari bunyodga keladi. Darhaqiqat, tarjima – azaldan til bilan bir qatorda mavjud bo‘lib, adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda taraqqiy etgani bois bu sohalarni bir-biridan alohida ajratish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 11 avgustdagagi “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bugun ham o‘z aktualligini yo‘qotgan emas. Unda “...kitob targ‘iboti orqali xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, kitobxonlik an’analarini keng targ‘ib qilish, elektron va audio kitoblar yaratish, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish”, “...xorijda o‘zbek tili va adabiyotini keng targ‘ib qilish, nashriyotlarga kitob mahsulotlarining xalqaro kitob bozorida o‘z mavqeい va salmog‘iga ega bo‘lishida ko‘maklashish” zarurligi alohida ta’kidlanadi<sup>1</sup>.

2018-yil 5-aprelda imzolangan “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hukumat qarorida esa “...katta iste’dod va yuksak grajdaniq pozitsiyasiga ega bo‘lgan keksa avlod vakillarining ijodiy salohiyati va mahoratidan yoshlarni keng bahramand etish; yosh iste’dod sohiblarini izlab topish, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish uchun chuqur o‘ylangan, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan innovatsion usullarni ishlab chiqish va joriy etish; dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va chop etish, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini xorijiy tillarga o‘girish va chet ellarda targ‘ib etish tizimini yaratish... Badiiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish maqsadida milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini aniqlash... Badiiy adabiyot bo‘yicha yosh tarjimonlarni tayyorlash, faoliyat ko‘rsatayotgan tarjimonlarning professional malakasi va mahoratini oshirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish” bilan bog‘liq dolzarb vazifalar alohida ta’kidlangan<sup>2</sup>. Bunday e’tibor mamlakatimizda badiiy tarjimaning umumdavlat ishiga aylanganidan dalolat beradi.

O‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini xorijiy tillarga, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni har tomonlama qo‘llab-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 11 августдаги “Матбуот ва ахборот соҳасида бошқарувни янада тақомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони (“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 12 август).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan.

quvvatlash, samarali ijod qilayotgan mohir tarjimonlarni munosib rag‘batlantirish, amalga oshirilayotgan badiiy tarjimalarning saviyasini yanada oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-mayda qabul qilgan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish to‘g‘risida”gi PQ-205-son Qarorida muhim maqsad qilib qo‘yilgan<sup>3</sup>. Ushbu Qarorda badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot g‘oliblarining har biri maxsus diplom, ko‘krak nishoni va yirik miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanishi alohida belgilab qo‘yilgan. Bunday mas’uliyatli vazifalarini mamlakat miqyosida amalga oshirish uchun ishlarni quyidagi yo‘nalishda olib borish maqsadga muvofiq:

- xorijiy adabiyot namunalarini chuqur o‘rganish va o‘zbek tiliga tarjima qilish;
- o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish orqali milliy madaniyatimizni jahonga targ‘ib qilish;
- o‘zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga va xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o‘zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima;
- Respublika oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis tarjimonlar tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlash;
- o‘tgan asrning 50-60-yillaridan to bugunga qadar salkam 70 yillik tarixiy davr ichida xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilingan badiiy asarlar bibliografiyasini tuzish (gap shundaki, so‘nggi 60-70 yil ichida xorijiy tillar, xususan sharq tillaridan ona tilimizga va o‘zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilingan badiiy asarlarning aniq bibliografiysi hanuz mavjud emas, albatta bu davrda turk tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan turk tiliga qilingan tarjimalar bundan mustasno);
- XX asrning 50-60 yillari, 70-90 yillari, 1991-2023 yillarda ona tilimizga tarjima qilingan xorijiy adabiyot durdonalarini (uch davrga bo‘lib) ilmiy tadqiq etish, tarjimalarning badiiy saviyasiga xolis va malakali baho berish, mohir tarjimonlar, badiiy so‘z ustalari, ijodkorlarning hayoti, tarjimonlik faoliyatları, mahoratlarini ilmiy o‘rganish;
- so‘nggi yillarda xorijiy tillardan ona tilimizga ag‘darilib katta tirajlarda nashr etilayotgan, saviyasi badiiy tarjima talablariga javob bermaydigan asarlarni aniqlab, ularga xolis munosabat bildirish.

Olib borilayotgan tarjimashunoslik tadqiqotlarida milliylik va badiiylikni tarjimada aks ettirishning usul va vositalari, ekvivalentlik va lisoniy adekvatlilik, mualliflar qo‘llagan badiiy san’atlarning tarjimada berilishi barobarida bugungi kun tarjimashunoslida ko‘p duch kelinayotgan tarjimaning lingvomadaniy aspektlari, muqobilsiz leksika, badiiy tarjimaning psixolingvistik xususiyatlari va kognitiv asoslarini o‘rganishni ham tarjimashunoslik tadqiqotlari doirasiga kiritish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Tadqiqotlar amaliy tarjimada

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 04 mayda qabul qilgan “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish to‘g‘risida”gi PQ-205-son Qarori.

uchrayotgan muammolarning sabablarini yoritish va shu asosda yangi nazariy xulosalar chiqarishga ko‘mak beradi.

Fursati kelganda, yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar doirasida ishlar boshlab yuborilgani, masalan, o‘tgan yillarda atoqli o‘zbek adiblari Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov va boshqa adiblarimiz qalamiga mansub yirik romanlarning xorijiy tillarga tarjimalari bo‘yicha doktorlik dissertasiyalari yoqlangani va bu sohadagi ishlar jadal davom etayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

Yoshlarning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi jahonga mashhur kitoblarni o‘zbek tiliga tarjima qilish hamda shu orqali yoshlarimizni zamонавиyl ilm-fanning so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirib borish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi qabul qilgan “«Yoshlar uchun ming kitob» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-380-son Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga muvofiq Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining mas’ulligida jahonda mashhur bo‘lgan 1000 ta kitobini tanlab olib, o‘zbek tiliga tarjima qilish va mamlakatimizda ommalashtirishga qaratilgan “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish belgilab berildi. Loyiha doirasida tarjima qilingan o‘zbek tilidagi adabiyotlar jamlanmasi kitobxonlarning bepul foydalanishi uchun maxsus mobil ilova yaratilishi ko‘zda tutilgan. Taassufki, 2023–2024-yillarda dastlabki tanlangan 50 nomdagagi kitoblarning aksar qismi ingliz tilida bo‘lib, sharq tillaridagi adabiyotlar e’tibordan chetda qoldirilgan. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, loyiha doirasida har yili tarjima qilib, nashr etiladigan adabiyotlar ro‘yxatiga kamida 20 foiz ilmiy-ommabop asarlar kiritilishi belgilangan.

Loyihaning moliyaviy jihatni borasida gapiriladigan bo‘lsa, kitoblarni tarjima qilish, nashrnga tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq davlat xaridlari talabgorlar, ya’ni nashriyot va tarjimonlar orasidan eng yaxshi takliflarni tanlash hamda tender o‘tkazish orqali amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

Darvoqe, shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hozirda xorijiy tillardan tarjima va nashr ishlari bilan shug‘ullanib kelayotgan nashriyotlar ko‘paymoqda. Respublikada chorak asr avval to‘qqizta nashriyot o‘z faoliyatini olib borgan bo‘lsa, ularning barchasi davlat tasarrufida bo‘lganligi ta’kidlanadi. “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashriyotlar soni 13 barobarga oshdi” (<https://kun.uz/47586493>) sarlavhasi ostida e’lon qilingan maqolada 2017-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat nashriyotlarining soni 122ga yetgan, shu bilan birga, 57 nashriyot xususiy shaklda ta’sis etilgan. Jahon adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjimasi va nashri bilan shug‘ullanadigan respublikadagi taniqli nashriyotlardan “Akademnashr”, “O‘zbekiston” nashriyotlarini ko‘rsatish mumkin. Lekin ayrim nashriyotlarda buyurtma asosida amalga oshirilayotgan tarjimalarning sifati shubha uyg‘otadi. Nashriyotlarning tarjimalarni chop etish borasidagi faoliyatlarini jiddiy nazoratga olish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Ma’lumki, hozirda O‘zbekistonda badiiy asarlar tarjimachiligi kasbiy faoliyat sifatida oz kuzatiladi, balki asosan havaskorlik va qo‘srimcha daromad uchun

shug‘ullanish holatlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunday xulosaga hozirda badiiy tarjima bilan shug‘ullanib kelayotgan zamonaviy o‘zbek tarjimonlari fikrmulohazalaridan kelish mumkin. Ana shunday mulohazakor suhbatlardan biri gazeta.uz saytida «Hozirgi aksar tarjimalarni o‘qib, ko‘zlarimni o‘yib olgim keladi» mavzusi ostida e’lon qilingan bo‘lib (<https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/30/translators/>), bunda tarjimachilik faoliyatining hozirgi dolzarb masalalari yuzasidan qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. O‘zbek badiiy tarjimachiligini rivojlantirish uchun ko‘rilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar borasida izchil tadqiqotlar olib borilishi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirishda professional tarjimonlar va tarjimashunoslikka tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklarda tahsil oladigan bo‘lajak tarjimonlar orasida turli so‘rovnama, anketalashtirish, intervyu va suhbatlar o‘tkazish nihoyatda katta samara beradi.

Tarjimonlik sohasini rivojlantirishda yana bir muhim yo‘nalish bu kompyuter lingvistikasi yo‘nalishidir. Xususan, korpus ishlanmalaridan bo‘lmish Parallel korpus juda ommalashib borayotgan tarjima va qiyosiy tahlil uchun foydali vositadir. turli tillarning parallel korpusini yaratish va uni takomillashtirish tarjimonlik faoliyatiga qulaylik keltirishda, tarjimashunoslik bo‘yicha tadqiqotlarda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, parallel korpuslar ta’lim jarayonida tarjimani o‘qitish va professional tarjima sozlamalarida ma’lumotnomma sifatida ishlataladi. Parallel korpus bu asliyatdagi matn va tarjima qilingan matnlar juftligi bo‘lib, tarjimashunoslikda asosiy e’tibor tarjimalarning asliyatdagи matnlardan farqlab turadigan xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda o‘zbek tilining til korpusini hamda turli tillar juftligidagi parallel korpuslarni yaratish boshlang‘ich bosqichda desak bo‘ladi. <https://uzbekcorpus.uz/parallel> linki ostida o‘zbek tili korpusi bo‘yicha yaratilgan saytda o‘zbek-ingliz, ingliz-o‘zbek, o‘zbek-rus, rus-o‘zbek, o‘zbek-turk, turk-o‘zbek, o‘zbek-koreys, koreys-o‘zbek singari 8 ta til kombinatsiyasida korpuslarning ishlab chiqilganini ko‘rish mumkin. Bunda qidiruvni rasmiy matnlar, ilmiy matnlar, badiiy matnlar, o‘xshatishlar (guruh bo‘yicha, so‘z bo‘yicha, iboralar, maqollar) parallel korpuslarida amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu o‘zbek tili korpusining hali takomillashtirishga ehtiyoj kattaligini ta’kidlagan holda, o‘zbek tili juftligida tillar kombinatsiyalarini ko‘paytirish, matnlarning janr jihatdan ko‘p tarmoqli tasniflash, tarjima matnlarining sifati hamda asliyat va tarjimaning adekvatliliga e’tibor qaratish maqsadga muvoqif deb bilamiz. Tarjimani avtomatlashtirish sohasida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim ishlardan yana biri o‘zbek tilida sifatli mashina tarjimasini ta’minlaydigan platforma va dasturlarning yaratilishidir. Shu kunlarda “Tilmoch” nomi ostida (<https://tahrirchi.uz/uz/translator>) turkiy tillar uchun maxsus sun’iy idrok yaratilib, hozirgi bosqichda o‘zbek va qoraqalpoq tillariga tabiiy va sifatli tarjima qilishni bilishi ta’kidlanmoqda. Shunga qaramay, tarjimaning eng murakkab turi sanalgan badiiy tarjimani hech qanday sun’iy idrok amalga oshira olmasligi, uni faqat yuksak salohiyat, keng badiiy tafakkur sohibi bo‘lgan ijodkor insongina amalga oshirishga qodir ekanligini alohida ta’kidlash lozim.



# CERTIFICATE OF APPRECIATION



Dr. Nargiza ISMATULLAYEVA

*From TSUOS (Tashkent, Uzbekistan) has presented paper entitled "TARJIMASHUNOSLIKNING KECHIKTIRIB BO'LMAS VAZIFALARI XUSUSIDA" in the international conference "VII Translation Forum - 2024" organized by the Department Translation Studies and International Journalism, TSUOS on 14 December 2024.*



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14600400>

14.12.2024  
Date.M.Yea

